



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAVOIY VILOYATI HOKIMINING QARORI

2025-yil 30-yanvar

28-5-0-Q/25

Navoiy viloyati hokimligi

Navoiy viloyatida 2025-yilda davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to‘lovining eng kam stavkalarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-dekabrda “Davlat mulkini ijaraga berish tartibini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 660-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Davlat mulkini ijaraga berish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2024-yil 30-dekabrda 01/23-18/1276-sonli, Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 29-dekabrda 02/29-27269-sonli kelishuv xatlari bilan taqdim etilgan 2025-yilda davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to‘lovining eng kam stavkalarini inobatga olgan holda, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-moddasiga asoslanib,

QAROR QILAMAN:

1. Quyidagilar:

Navoiy shahri hududida joylashgan davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun 2025-yilda 1 kv. metr uchun qo‘llaniladigan ijara to‘lovining eng kam stavkalari (iqtisodiy sohalar va tarmoqlar bo‘yicha) 1-ilovaga muvofiq;

Zarafshon, G‘ozg‘on shaharlari va tumanlarida joylashgan davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun 2025-yilda 1 kv. metr uchun qo‘llaniladigan ijara to‘lovining eng kam stavkalari (iqtisodiy sohalar va tarmoqlar bo‘yicha) 2-ilovaga muvofiq;

Sanoat zonalarida hududlaridagi davlat ko‘chmas mulkini 2025-yilda ijaraga berishda 1 kv. metr uchun qo‘llaniladigan ijara to‘lovining eng kam stavkalari 3-ilovaga muvofiq;

Ijara to'lovi stavkalariga qo'llaniladigan oshiruvchi koeffitsientlar 4-ildavaga muvofiq;

Ijara to'lovining eng kam stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsientlarning hisoblash tartibi 5-ildavaga muvofiq;

Viloyat markazi hamda shahar va tumanlar (birinchi-to'rtinchi darajali) mahallalar ro'yxati 6-ildavaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O'zbekiston Respublikasi Davlat aktiv agentligi huzuridagi Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazining viloyat hududiy boshqarmasi (A.Sharipov)ga:

davlat mulkini ijaraga berishni tashkil etish va ijaraga berish;

ijaraga berilgan davlat mulkini va uni ijaraga berishdan tushadigan mablag'larni hisobga olish va monitoringini olib borish;

ijaraga beriladigan davlat mulki bo'yicha ma'lumotlar bazasini shakllantirish;

ijara obyektlaridan maqsadli foydalanilishini va ularning saqlanishini, shuningdek ijara to'lovi o'z vaqtida va to'liq to'lanishini nazorat qilish;

davlat mulkini ijaraga berish sohasidagi qonunchilikni buzish holatlari aniqlangan hollarda ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida bayonnomalar rasmiylashtirish va sudlarga yuborish;

foydalanilmayotgan davlat mulki ijaraga berilishi to'g'risidagi e'lonlarni va ijaraga berilayotgan davlat mulklari ro'yxatlarini davriy nashrlarda hamda viloyat hokimligining, O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat hududiy boshqarmasining va Savdo-sanoat palatasi viloyat hududiy boshqarmasining veb-saytlarida va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida joylashtirilishini ta'minlash topshirilsin.

3. O'zbekiston Respublikasi Davlat aktiv agentligi huzuridagi Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazining viloyat hududiy boshqarmasi (A.Sharipov), viloyat soliq boshqarmasi (S.Nazarov), shahar va tuman hokimliklari hududlarda ijara munosabatlarini tartibga solish, ijaraga berilayotgan davlat mulki hisobotini to'g'ri yuritish va budjetga qo'shimcha mablag'larni jalb qilish maqsadida davlat mulkini balansda saqlovchilari tomonidan ijaraga berish samaradorligini oshirish va tashkillashtirishda o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'ysin.

4. Vazirlik va idoralarning viloyat boshqarmalari hamda tizim tashkilotlari balansidagi davlat mulklarini xatlovdan o'tkazsin va bo'sh turgan yoki samarasiz foydalanilayotgan davlat mulklarini ijaraga berish bo'yicha har chorak yakuni bilan hisobot oyidan keyingi oyning 10-sanasisigacha Davlat aktiv agentligi huzuridagi Davlat

mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazining viloyat hududiy boshqarmasiga bu mulkning joylashgan joyi, miqdori, tarkibi va boshqa umumiy tavsiflari ko'rsatilgan ma'lumotlarini taqdim etib borsin.

5. Davlat kadastrlar palatasi viloyat hududiy boshqarmasi (To'xtayev) har chorak yakuni bilan keyingi oyning 5-sanasiga qadar viloyatda mavjud davlat mulki obyektlarining ro'yxatini elektron holatda Davaktiv agentligi huzuridagi Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazining viloyat hududiy boshqarmasiga taqdim etib borsin.

6. Viloyat hududida 2025-yilda davlat mulki bo'lgan binolar va xonalarda joylashgan budget tashkilotlari uchun ijara to'lovining "nol" stavkasi belgilansin.

7. Viloyat hokimligi axborot xizmati rahbari – matbuot kotibi (Sh.Raubayeva) mazkur qarorni "Do'stlik bayrog'i" va "Знамя дружбы" gazetalarida e'lon qilinishini hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta'minlasin.

8. Viloyat hokimining 2024-yil 29-yanvardagi "Navoiy viloyatidagi davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun 2024-yilda qo'llaniladigan ijara to'lovining eng kam stavkalari to'g'risida"gi 19-5-0-Q/24-sonli qarori o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

9. Ushbu qaror rasmiy e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

10. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o'rinbosari R. Sulaymonov zimmasiga yuklansin.

Viloyat hokimi



N.Tursunov

Navoiy viloyat hokimining
2025-yil 30-yanvardagi
28-5-0-Q/25-son qaroriga
1-ilova

**Navoiy shahri hududida joylashgan davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik
uchun 2025-yilda 1 kv.metr uchun qo'llaniladigan ijara to'lovining eng kam
stavkalari (iqtisodiy sohalar va tarmoqlar bo'yicha)**

№	Ijaraga beriladigan maydonlardan foydalanish maqsadi	2025-yilda 1 kv.m. maydon uchun yillik eng kam ijara to'lovi stavkalari (QQS bilan birga)
Ishlab chiqarish		
1	Ishlab chiqarish turlari bo'yicha (kimyo, neft, mashinasozlik, hisoblash texnikalari, traktorsozlik, maishiy anjomlar, sanitariya, metall, tamaki, elektronika va santexnika mahsulotlari va jihozlari)	16 000
2	Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	50 700
3	Elektr energiya ishlab chiqarish	16 000
Qurilish sanoati		
4	Qurilish mahsulotlari sanoati (asfalt, bitum, tosh saralash, shlakoblok, penablok, gazoblok, suvoq qorishmalari, gipsokarton, tunikafon, shifer, sement, senvich panel ishlab chiqarish va yog'ochni qayta ishlash)	16 000
5	Deraza, eshiklar va mebel ishlab chiqarish sanoati (yog'ochdan)	53 300
6	Deraza, eshik va mebellar ishlab chiqarish (plastik, alyumin va MDFdan)	84 800
Yengil sanoat		
7	Yengil sanoat turlari bo'yicha (to'qimachilik, tikuvchilik, charm, mo'yna, poyabzal, sellyuloza-qog'oz sanoati)	16 000
Oziq-ovqat sanoati		
8	Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish (yog', go'sht, baliq, ichimlik, un, qandolat mahsulotlari hamda omuxta-yem sanoati)	16 000

9	Chorva (qo'y) mollarini so'yish va sotish (jumladan kushxona)	45 200
10	Sut mahsulotlari sanoati	31 300
11	Non va qolipli (bulka) non mahsulotlari ishlab chiqarish	45 200
Qishloq xo'jaligi		
12	O'simlikshunoslik (o'rmon xo'jaligi va bog'lar) 1 gektar yer maydoni uchun	6 456 200
13	Issiqxona xo'jaligi 1 gektar yer maydoni uchun	16 101 000
14	Chorva va parranda yetishtirish (boqish)	7 700
15	Baliqchilik (shu jumladan sun'iy maydon) 1 gektar uchun	14 456 200
16	Asalarichilik 1 gektar yer maydoni uchun	4 196 900
Transport va aloqa		
17	Transport infratuzilmalari (avtopark, taksopark, avtomobil to'xtash joylari va garaj)	16 000
18	Transport infratuzilmalari (jarima maydonlari)	8 200
19	Avtomobillarni yuvish	51 800
20	Avtomobillarga yoqilg'i quyish (benzin, dizel)	56 500
21	Avtomobillarga yoqilg'i quyish (gaz quyish shoxobchalari)	63 000
22	Elektromobillarni quvvatlash shoxobchasi	27 400
23	Yengil avtomashinalar va boshqa turdagi transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish	51 700
24	Vulkanizatsiya, payvandlash, chilangarlik ishlarining barcha turlari	39 300
25	Aholi buyurtmasiga asosan yuk tashish va transport xizmatlari	29 100
26	Pochta va kuryerlik aloqasi	35 900
27	Elektr-simli aloqa (WIFI Router)	32 300
28	Radio, uyali aloqa va peydjer aloqasi (inshootlarni hisobga olgan holda hudud doirasida)	135 600
Savdo va umumiy ovqatlanish		

29	Ulgurji savdo	45 200
30	Mahsulotlarni (xizmatlarni) qismlab savdo faoliyatini amalga oshiruvchi ulgurji savdo bozorlaridagi savdo do'konlari	116 100
31	Chakana savdo	45 200
32	Sotuvchisiz elektron uskunalar orqali chakana savdoni tashkil etish	109 800
33	Umumiy ovqatlanish (Tabiiy va sun'iy suv havzalari hamda daryo bo'ylarida baliq mahsulotlari va taomlari savdosi, fast fud)	45 200
34	Kitob do'konlari	6 300
35	Lombardlar	58 400
Xizmat ko'rsatish		
36	Xizmat ko'rsatish turlari bo'yicha (xo'jalik buyumlarini ijaraga berish, nusxa ko'chirish, ko'chmas mulklar bilan bog'liq xizmatlar, reklama va ko'rgazmalar, geodeziya va gidrometeorologiya)	45 200
37	Kompyuter o'yinlarini tashkil etish	67 800
38	Mehmonxona xo'jaligi	51 700
39	Umumiy yashash joylari (shu jumladan talabalar va o'quvchilar turar joylari)	40 200
40	Maishiy xizmatning noishlab chiqarish turlari (veterinariya xizmatlari, kimyoviy tozalash va bo'yash, avtomobil, velosiped, samokatlarni ijaraga berish, paxta va jun tozalash va titish hamda ko'ngilochar qurilmalar joylashtirish)	26 000
41	Mashina va uskunalarini ta'mirlash	16 000
42	Loyiha, loyiha-qidiruv tashkilotlari	35 900
43	Poligrafiya sanoati	39 300
44	Qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar	35 900
45	Suv bo'yida xizmat ko'rsatish joylari (plyaj zonalari, baliq ovlash maskanlari, qayiqda suzish va suv sayohati va suv bo'yida turizm xizmatlarini tashkil etish)*	32 300
46	Quyosh panellari va suv isitish qurilmalar joylashtirish	7 700
47	Sartaroshxona, fotosalon, modalar atelesi, poyabzallarni ta'mirlash ustaxonasi	38 900

48	Hammomlar	77 800
49	Saunalar va basseymlar	155 000
Turizm xizmatlari		
50	Madaniy meros obyektlarida hunarmandchilik turlari bo'yicha (misgarlik, zargarlik, o'ymakorlik, rassomchilik, do'ppido'zlik, telpak, cho'girma, chopon va x.k)	48 200
51	Hunarmandchilik turlari bo'yicha (yodgorlik majmualari yasash, misgarlik, zargarlik, o'ymakorlik, rassomchilik, do'ppido'zlik, telpak, cho'girma, chopon va x.k)	38 200
52	Madaniy meros obyektlarida hostel va mehmonxona xizmatlarini tashkil etish	90 700
53	Madaniy meros obyektlarida savdo xizmatlarini ko'rsatish (esdalik buyumlari, sovg'alar, hunarmandchilik mahsulotlari va h.k)	70 800
54	Madaniy meros obyektlarida umumiy ovqatlanish shoxobchalari (restoran, kafe, fas-fud va h.k)	80 700
55	Madaniy ko'ngilochar markazlar (bilyard, o'yin avtomatlari, diskoteka)	51 700
Sog'liqni saqlash		
56	Davolash maskani (statsionar davolash)	32 300
57	Davolash maskani (shu jumladan laboratoriya, operatsion blok, stamatologiya, fizioterapiya)	99 500
58	Tibbiy asbob uskunalari o'rnatish (massajlovchi stullar, MRT, UZI, MSKT, rentgen va boshqa qurilmalari)	123 100
59	Tibbiyot sanoati (Tibbiyot buyumlari, asbob uskunalari va dori vositalari ishlab chiqarish)	124 100
60	Fitobar	22 300
61	Dorixonalar (optika, tibbiyot anjomlari va jihozlari sotish)	54 400
62	Protez-ortopediya moslamalarini tayyorlash va ta'mirlash	32 300
63	Ijtimoiy-dorixonalar	23 000
Jismoniy tarbiya va sport		
64	Sport maydonlari (stadionlar)	29 300

65	Sport zallari (qo'l jangi, karate, kurash, sambo, erkin kurash va h.k)	16 000
66	Fitnes va yengil atletika zallari	128 000
Ta'lim		
67	Nodavlat ta'lim tashkilotlari (oliy, o'rta va maktabgacha tarbiya muassasalari)	32 300
68	Tayyorlov kurslari (IT, malaka oshirish va repitetorlik)	53 300
69	Oliy ta'lim muassasalarida umumiy ovqatlanish	31 500
70	O'rta maxsus ta'lim muassasalarida (jumladan maktablarda) umumiy ovqatlanish	23 750
71	Madaniyat va san'at	45 200
72	Ko'rgazmalar	34 900
73	Madaniy dam olishni tashkil etish (bog'lar, zooparklar, televideniya va radioeshittirishlar redaksiyalari)	32 300
74	Kinostudiyalar, ovoz yozish studiyalari	51 700
75	Fan va ilmiy xizmatlar ko'rsatish	19 600
76	Avtomaktablar	28 650
77	O'quv amaliyot poligonlari (test tajriba va sinov maydonlari)	16 000
Moliya-kredit faoliyati		
78	Moliya, kredit va pensiya ta'minoti (sug'urtalash va auditorlik faoliyatidan tashqari)	45 200
79	Auditorlik faoliyati	45 200
80	Buxgalteriya va soliq servis xizmatlari	70 800
81	Marketing tadqiqotlari, tijorat, moliya va boshqaruv faoliyatlari bo'yicha maslahatxonalar	45 200
82	Bankomatlar	647 000
83	Paynetlar	129 700
84	Turli xizmat turlari uchun to'lov qabul qilish maskanlari (kassalar)	129 700
85	Front-ofislar (Banklar uchun)	55 200

86	Bank xizmatlari ofisi	45 200
87	Sug'urta faoliyati	38 900
88	Avia kassalar (shu jumladan temir yo'l, avtotransport va boshqalar)	70 800
Faoliyatning boshqa turlari		
89	Notarial xizmatlar	45 200
90	Sud va yuridik xizmat muassasalari hamda advokatlar kollegiyasi	38 900
91	Jamoat birlashmalari	13 050
92	Omborxonalar	45 200
93	Davlat korxona va muassasalari	19 600
94	Xususiy tashkilotlarga ofis	70 800
95	Arxiv xizmati	19 600
96	Tahririyat va nashriyotlar	26 000
97	Metallolom va ikkilamchi qog'oz (latta) mahsulotlarini to'plash joylari	26 000
98	Laboratoriyalar (Tibbiy xizmatlardan tashqari)	32 300

Izoh: Davlat mulkini ijaraga berishda imtiyozlar va preferensiyalar qo'llanishi qonunchilikda belgilangan tartiblarda amalga oshirilishi mumkin.

* O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 02.09.2023-yildagi "Davlatga tegishli suv havzalarini tadbirkorlik subyektlariga "E-auksion" elektron savdo platformasi orqali ijaraga berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida 441-son qaroriga asosan qo'shilgan faoliyat turlari.

Navoiy viloyat hokimining
2025-yil 30-yanvardagi
28-5-0-Q/25-son qaroriga
2-ilova

**Zarafshon, G'ozg'on shaharlari va tumanlarida joylashgan davlat ko'chmas
mulkidan foydalanganlik uchun 2025-yilda 1 kv.metr uchun qo'llaniladigan ijara
to'lovining eng kam stavkalari
(iqtisodiy sohalar va tarmoqlar bo'yicha)**

№	Ijaraga beriladigan maydonlardan foydalanish maqsadi	2025-yilda 1 kv.m. maydon uchun yillik eng kam ijara to'lovi stavkalari (QQS bilan birga)
Ishlab chiqarish		
1	Ishlab chiqarish turlari bo'yicha (kimyo, neft, mashinasozlik, hisoblash texnikalari, traktorsozlik, maishiy anjomlar, sanitariya, metall, tamaki, elektronika va santexnika mahsulotlari va jihozlari)	11 300
2	Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	36 750
3	Elektr energiya ishlab chiqarish	11 300
Qurilish sanoati		
4	Qurilish mahsulotlari sanoati (asfalt, bitum, tosh saralash, shlakoblok, penablok, gazoblok, suvoq qorishmalari, gipsokarton, tunikafon, shifer, sement, senvich panel ishlab chiqarish va yog'ochni qayta ishlash)	11 300
5	Deraza, eshiklar va mebel ishlab chiqarish sanoati (yog'ochdan)	34 550
6	Deraza, eshik va mebellar ishlab chiqarish (plastik, alyumin va MDFdan)	48 450
Yengil sanoat		
7	Yengil sanoat turlari bo'yicha (to'qimachilik, tikuvchilik, charm, mo'yna, poyabzal, sellyuloza-qog'oz sanoati)	11 300
Oziq-ovqat sanoati		
8	Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish (yog', go'sht, baliq, ichimlik, un, qandolat mahsulotlari hamda omuxta-yem sanoati)	11 300
9	Chorva (qo'y) mollarini so'yish va sotish (jumladan kushxona)	32 500

10	Sut mahsulotlari sanoati	22 600
11	Non va qolipli (bulka) non mahsulotlari ishlab chiqarish	28 200
Qishloq xo'jaligi		
12	O'simlikshunoslik (o'rmon xo'jaligi va bog'lar) 1 gektar yer maydoni uchun	4 624 000
13	Issiqxona xo'jaligi 1 gektar yer maydoni uchun	11 101 000
14	Chorva va parranda yetishtirish (boqish)	5 600
15	Baliqchilik (shu jumladan sun'iy maydon) 1 gektar uchun	9 624 000
16	Asalarichilik 1 gektar yer maydoni uchun	3 005 900
Transport va aloqa		
17	Transport infratuzilmalari (avtopark, taksopark, avtomobil to'xtash joylari va garaj)	11 300
18	Transport infratuzilmalari (jarima maydonlari)	4 050
19	Avtomobillarni yuvish	32 600
20	Avtomobillarga yoqilg'i quyish (benzin, dizel)	42 100
21	Avtomobillarga yoqilg'i quyish (gaz quyish shoxobchalari)	45 600
22	Elektromobillarni quvvatlash shoxobchasi	19 900
23	Yengil avtomashinalar va boshqa turdagi transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish	36 900
24	Vulkanizatsiya, payvandlash, chilangarlik ishlarining barcha turlari	28 400
25	Aholi buyurtmasiga asosan yuk tashish va transport xizmatlari	21 000
26	Pochta va kuryerlik aloqasi	26 000
27	Elektr-simli aloqa (WIFI Router)	23 000
28	Radio, uyali aloqa va peydjer aloqasi (inshootlarni hisobga olgan holda hudud doirasida)	97 200
Savdo va umumiy ovqatlanish		
29	Ulgurji savdo	32 500

30	Mahsulotlarni (xizmatlarni) qismlab savdo faoliyatini amalga oshiruvchi ulgurji savdo bozorlaridagi savdo do'konlari	83 000
31	Chakana savdo	32 500
32	Sotuvchisiz elektron uskunalar orqali chakana savdoni tashkil etish	89 800
33	Umumiy ovqatlanish (Tabiiy va sun'iy suv havzalari hamda daryo bo'ylarida baliq mahsulotlari va taomlari savdosi, fast fud)	32 500
34	Kitob do'konlari	4 700
35	Lombardlar	41 800
Xizmat ko'rsatish		
36	Xizmat ko'rsatish turlari bo'yicha (xo'jalik buyumlarini ijaraga berish, nusxa ko'chirish, ko'chmas mulklar bilan bog'liq xizmatlar, reklama va ko'rgazmalar, geodeziya va gidrometeorologiya)	32 500
37	Kompyuter o'yinlarini tashkil etish	48 700
38	Mehmonxona xo'jaligi	36 900
39	Umumiy yashash joylari (shu jumladan talabalar va o'quvchilar turar joylari)	28 200
40	Maishiy xizmatning noishlab chiqarish turlari (veterinariya xizmatlari, kimyoviy tozalash va bo'yash, avtomobil, velosiped, samokatlarni ijaraga berish, paxta va jun tozalash va titish hamda ko'ngilochar qurilmalar joylashtirish)	18 500
41	Mashina va uskunalarni ta'mirlash	11 300
42	Loyiha, loyiha-qidiruv tashkilotlari	26 000
43	Poligrafiya sanoati	32 500
44	Qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar	26 000
45	Suv bo'yida xizmat ko'rsatish joylari (plyaj zonalari, baliq ovlash maskanlari, qayiqda suzish va suv sayohati va suv bo'yida turizm xizmatlarini tashkil etish)*	23 000
46	Quyosh panellari va suv isitish qurilmalar joylashtirish	5 600
47	Sartaroshxona, fotosalon, modalar atelezi, poyabzallarni ta'mirlash ustaxonasi	28 200
48	Hammomlar	55 600

49	Saunalar va basseynlar	111 100
Turizm xizmatlari		
50	Madaniy meros obyektlarida hunarmandchilik turlari bo'yicha (misgarlik, zargarlik, o'ymakorlik, rassomchilik, do'ppido'zlik, telpak, cho'girma, chopon va x.k)	37 700
51	Hunarmandchilik turlari bo'yicha (yodgorlik majmualari yasash, misgarlik, zargarlik, o'ymakorlik, rassomchilik, do'ppido'zlik, telpak, cho'girma, chopon va x.k)	27 700
52	Madaniy meros obyektlarida hostel va mehmonxona xizmatlarini tashkil etish	70 700
53	Madaniy meros obyektlarida savdo xizmatlarini ko'rsatish (esdalik buyumlari, sovg'alar, hunarmandchilik mahsulotlari va h.k)	50 800
54	Madaniy meros obyektlarida umumiy ovqatlanish shoxobchalari (restoran, kafe, fas-fud va h.k)	57 700
55	Madaniy ko'ngilochar markazlar (bilyard, o'yin avtomatlari, diskoteka va boshqalar)	36 900
Sog'liqni saqlash		
56	Davolash maskani (statsionar davolash)**	23 000
57	Davolash maskani (shu jumladan laboratoriya, operatsion blok, stamatologiya, fizioterapiya)	79 500
58	Tibbiy asbob uskunalari o'rnatish (massajlovchi stullar, MRT, UZI, MSKT, rentgen va boshqa qurilmalari)	103 100
59	Tibbiyot sanoati (Tibbiyot buyumlari, asbob uskunalari va dori vositalari ishlab chiqarish)	104 100
60	Fitobar	16 000
61	Dorixonalar (optika, tibbiyot anjomlari va jihozlari sotish)	29 200
62	Protez-ortopediya moslamalarini tayyorlash va ta'mirlash	23 000
63	Ijtimoiy-dorixonalar	15 000
Jismoniy tarbiya va sport		
64	Sport maydonlari (stadionlar)	24 300
65	Sport zallari (qo'l jangi, karate, kurash, sambo, erkin kurash va h.k)	11 300
66	Fitnes va yengil atletika zallari**	108 000
Ta'lim		

67	Nodavlat ta'lim tashkilotlari (oliy, o'rta va maktabgacha tarbiya muassasalari)**	23 000
68	Tayyorlov kurslari (IT, malaka oshirish va repetitorlik)	38 600
69	Oliy ta'lim muassasalarida umumiy ovqatlanish	22 700
70	O'rta maxsus ta'lim muassasalarida (jumladan maktablarda) umumiy ovqatlanish	17 000
71	Madaniyat va san'at	32 500
72	Ko'rgazmalar	26 100
73	Madaniy dam olishni tashkil etish (bog'lar, zooparklar, televideniya va radioeshittirishlar redaksiyalari)	23 000
74	Kinostudiyalar, ovoz yozish studiyalari	36 900
75	Fan va ilmiy xizmatlar ko'rsatish	13 800
76	Avtomaktablar	16 400
77	O'quv amaliyot poligonlari (test tajriba va sinov maydonlari)	11 300
Moliya-kredit faoliyati		
78	Moliya, kredit va pensiya ta'minoti (sug'urtalash va auditorlik faoliyatidan tashqari)	32 500
79	Auditorlik faoliyati	30 400
80	Buxgalteriya va soliq servis xizmatlari	50 800
81	Marketing tadqiqotlari, tijorat, moliya va boshqaruv faoliyatlari bo'yicha maslahatxonalar	32 500
82	Bankomatlar	463 300
83	Paynetlar	92 750
84	Turli xizmat turlari uchun to'lov qabul qilish maskanlari (kassalar)	92 750
85	Front-ofislar (Banklar uchun)	45 200
86	Bank xizmatlari ofisi	32 500
87	Sug'urta faoliyati	32 500
88	Avia kassalar (shu jumladan temir yo'l, avtotransport va boshqalar)	50 800
Faoliyatning boshqa turlari		

89	Notarial xizmatlar	32 500
90	Sud va yuridik xizmat muassasalari hamda advokatlar kollegiyasi	28 200
91	Jamoat birlashmalari	9 100
92	Omborxonalar	32 500
93	Davlat korxona va muassasalari	13 800
94	Xususiy tashkilotlarga ofis	50 800
95	Arxiv xizmati	11 550
96	Tahririyat va nashriyotlar	18 500
97	Metallolom va ikkilamchi qog'oz (latta) mahsulotlarini to'plash joylari	18 500
98	Laboratoriyalar (Tibbiy xizmatlardan tashqari)	23 000

Izoh: Davlat mulkini ijaraga berishda imtiyozlar va preferensiyalar qo'llanishi qonunchilikda belgilangan tartiblarda amalga oshirilishi mumkin.

* O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 02.09.2023-yildagi "Davlatga tegishli suv havzalarini tadbirkorlik subyektlariga

"E-auksion" elektron savdo platformasi orqali ijaraga berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 441-son qaroriga ham tatbiq etiladi.

** Mazkur faoliyat turlari bo'yicha 4 va 5 toifadagi tumanlar hududidagi davlat mulki bo'lgan ijtimoiy soha obyektlarini faqat o'z faoliyat yo'nalishini saqlagan holda ijaraga berishda amaldagi minimal stavkaga nisbatan 50 foiz imtiyoz qo'llaniladi.

Navoiy viloyat hokimining
2025-yil 30-yanvardagi
28-5-0-Q/25-son qaroriga
3-ilova

**Sanoat zonalari hududlaridagi davlat ko‘chmas mulkini 2025-yilda ijaraga berishda 1 kv.metr uchun
qo‘llaniladigan ijara to‘lovining eng kam stavkalari**

T/R	Taklif etilayotgan narx (QQS bilan birga) <i>(tuman va shaharlar toifalari bo'yicha)</i>				
	1-toifa (1 kv.m)	2-toifa (1 kv.m)	3-toifa (1 kv.m)	4-toifa (1 kv.m)	5-toifa (1 kv.m)
1	160 000	136 000	112 000	88 000	80 000

Ijara to'lovi stavkalariga qo'llaniladigan oshiruvchi koeffitsentlar

I. Hududiy zonalar koeffitsenti-(Kz)			
T/r	Hududlar nomi	Zonalar	Koeffitsent
1	Navoiy shahri	1	3,0
	Zarafshon shahri	2	2,5
	Karmana tumani	3	2,0
2	Qiziltepa tumani	1	2,5
	Xatirchi tumani	2	2,0
	Uchquduq tumani	3	1,5
	Navbahor tumani	4	1,0
3	Konimex tumani	1	2,0
	Nurota tumani	2	1,5
	G'azg'on shahri	3	1,0
	Tomdi tumani		
II.Binoning qurilish turi bo'yicha koeffitsenti-(Kk)			
2.1	Alohida turgan bino		1,5
2.2	Binoga taqab qurilgan		1,2
2.3	Binoning ustka qismi, cherdak, bolaxona		0,8
2.4	Yarim yerto'la, yer to'la		0,7
III. Tutashib ketgan xududdan foydalanish koeffitsenti- (Kx)			
3.1	Yer maydoni mavjud bo'lganda		0,7
IV. Tijorat maqsadida foydalanishda qulaylik koeffitsenti –(Ko)			
4.1	Asosiy qatnov yo'llarida joylashganda		1,0
4.2	Ikkinchi darajali transport qatnovi yo'llarida joylashganda		0,7

Izoh: Navoiy viloyati hokimining 2017-yil 6-yanvardagi Q-3-sonli qaroriga asosan hududiy zonalar koeffitsenti ishlab chiqilgan.

a) Davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to'lovining eng kam miqdori quyidagicha hisoblab chiqiladi:

$$Ts=Es*Kz*(Kq+Kh+Ko), \text{ bunda:}$$

Ts — davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun bir yilga bir kv.metr uchun ijara to'lovining eng kam miqdori;

Es — davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun bir yilga bir kv.metr uchun ijara to'lovining eng kam stavkasi;

Kz — hududiy zonalar koeffitsiyenti;

Kh — tutashib ketgan hududdan foydalanish koeffitsiyenti;

Ko — tijorat maqsadlarida foydalanishda qulaylik koeffitsiyenti (asosiy avtotransport yo'llari bo'ylab joylashish, ikkinchi darajali avtotransport yo'llariga chiqishda joylashish va boshqalar).

b) Mol-mulkning boshqa turlari uchun ijara to'lovi stavkasini hisoblashda, agar ijaraga topshirilayotgan mulkdan amalda foydalanilgan muddat undan samarali foydalanish muddatidan ortiq bo'lmasa yoki ushbu muddatga teng bo'lsa, yoki amalda foydalanilgan muddatni aniqlash mumkin bo'lmasa - mol-mulk tiklanish qiymatining 30 foizidan, agar ijaraga topshirilayotgan mol-mulkdan amalda foydalanilgan muddat undan samarali foydalanish muddatidan ortiq bo'lmasa - mol-mulk tiklanish qiymatining 20 foizidan kam bo'lishi mumkin emas.

v) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 30 dekabrda PF-287-son Farmonining 3-ilovasiga asosan 4,5-toifaga tushgan tumanlarda Davlat mulki ob'ektlarini ijaraga berishda auksionga chiqariladigan boshlang'ich narxni belgilash (amaldagi stavkaga nisbatan) 50% chegirma beriladi.

1-toifa Navoiy shahar;

2-toifa Zarafshon shahri, Karmana tumani, Navbahor tumani, Uchquduq tumani;

3-toifa G'azg'on shahri, Nurota tumani, Qiziltepa tumani;

4-toifa Konimex tumani, Xatirchi tumani;

5-toifa Tomdi tumani;

Ijara to'lovining eng kam stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsientlarning hisoblash tartibi

Davlat ko'chmas mulkidan foydalanlik uchun ijara to'lovining eng kam miqdori quyidagicha hisoblab chiqiladi:

$$T_s = E_s * K_z * (K_q + K_h + K_o)$$

Bunda:

T_s — davlat ko'chmas mulkidan foydalanlik uchun bir yilga bir kv.metr uchun ijara to'lovining eng kam miqdori;

E_s — davlat ko'chmas mulkidan foydalanlik uchun bir yilga bir kv.metr uchun ijara to'lovining eng kam stavkasi;

K_z — hududiy zonalar koeffitsienti;

K_q — Qurilish turi bo'yicha koeffitsient;

K_h — tutashib ketgan hududdan foydalanish koeffitsienti;

K_o — tijorat maqsadlarida foydalanishda qulaylik koeffitsienti (asosiy avtotransport yo'llari bo'ylab joylashish, ikkinchi darajali avtotransport yo'llariga chiqishda joylashish va boshqalar).

Qurilish turi bo'yicha koeffitsient (K_q), tutashib ketgan hududdan foydalanish koeffitsienti (K_h) va tijorat maqsadlarida foydalanishda qulaylik koeffitsienti (K_o)ning yig'indisi 1 birlikdan kam bo'lgan taqdirda, yaxlitlangan holda 1 birlikka teng hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan koeffitsientlar quyidagilarni ifodalaydi, jumladan:

- Hududiy zonalar koeffitsienti (K_z) – viloyat, tuman (shahar) markazlari hamda chekka hududlarning rivojlanganlik darajasidan kelib chiqqan holda belgilanadigan koeffitsient;

- Qurilish turi bo'yicha koeffitsient (K_q) – davlat mulki obyektni yaxlit holatda yoki uning bir qismini (yertulasi, yarim yer to'lasi, bino ichidagi xonasi, boloxonasi, tom qismi) hamda obyektga biriktirilgan yer maydoni, shu jumladan beton (asfalt) maydoni bo'yicha belgilanadigan koeffitsient.

Bunda, ijaraga oluvchi davlat mulki obyektini to'liq ijaraga olganda (shartnoma muddati davomida balansda saqlovchi obyektдан foydalanish imkoni cheklanganda) qurilish turi bo'yicha alohida turgan bino koeffitsienti qo'llaniladi;

Ijaraga oluvchi davlat mulki obyektining bir qismini yertulasi, yarim yer to'lasi, bino ichidagi xonasi, boloxonasi, tom qismi yoki birlashtirilgan yer maydoni, shu jumladan beton (asfalt) maydonini ijaraga olganda va ushbu maydonlardan balansda saqlovchi bilan birgalikda foydalanilganda qurilish turi bo'yicha koeffitsient ijaraga berilgan maydon obyektning joylashgan qismi asosida qo'llaniladi.

- Tutashib ketgan hududdan foydalanish koeffitsienti (K_h) - ushbu koeffitsient davlat mulki obyektini yaxlit holatda (to'liq) ijaraga berilganda (shartnoma muddati davomida balansda saqlovchi obyektдан foydalanish imkoni cheklanganda) qo'llanilmaydi qolgan holatlarda (obyektning bir qismi berilganda) qo'llaniladi.

Ushbu koeffitsient qo'llanilmagan hollarda obyekt hududidagi betonlashtirilgan (asfaltlangan) maydonlari ijara maydoni sifatida shartnomaga kiritiladi va belgilangan tartibda to'lov undiriladi.

- Tijorat maqsadlarida foydalanishda qulaylik koeffitsienti (K_o) - ushbu koeffitsient obyekt joylashgan manziling tijoriy faoliyat uchun qulaylik darajasini belgilaydi.

Bunda, ijaraga berilgan obyekt xalqaro va mahalliy ahamiyatdagi avtomobil yo'llariga tutash hududlarda joylashgan bo'lsa asosiy avtotransport yo'lida joylashgan hisoblanadi. Mahallalar ichki ko'chalarida joylashgan bo'lsa ikkinchi darajali avtotransport yo'lida joylashgan hisoblanadi.

Navoiy viloyat hokimining
2025-yil 30-yanvardagi
28-5-0-Q/25-son qaroriga
6-ilova

**Viloyat markazi hamda shahar va tumanlar (birinchi-to'rtinchi
darajali) mahallalar ro'yxati**

T/r	Mahalla nomi	Hududiy zona (1-4)
Navoiy shahar		
1	Yangiobod MFY	1
2	Istiqlol MFY	2
3	Yangiariq MFY	2
4	Guliston MFY	2
5	Binokor MFY	1
6	Janubiy MFY	1
7	Lochin MFY	1
8	Bunyodkor MFY	1
9	Hayot MFY	2
10	Taraqqiyot MFY	1
11	Kimyogar MFY	1
12	Vatan MFY	1
13	Ishonch MFY	1
14	Chinor MFY	1
15	Turon MFY	1
16	Mustaqillik MFY	1
17	Gulzor MFY	1
18	Oltin Vodiy MFY	1
19	Matonat MFY	1
20	Do'stlik MFY	1
21	Me'mor MFY	1
22	Xoncharbog' MFY	1
23	Xumo MFY	1
24	Yoshlik MFY	1

25	Farovon MFY	1
26	Yangihayot MFY	1
27	O‘zbekiston MFY	1
28	Bahor MFY	1
29	Umid MFY	1
30	Muruvvat MFY	1
31	Orzu MFY	1
32	G‘alaba MFY	1
33	Zarafshon MFY	1
34	Tinchlik MFY	3
35	Ziyokor MFY	1
36	Ma’rifat MFY	1
Zarafshon shahar		
1	Alisher Navoiy MFY	1
2	Konchilar MFY	1
3	Muruntau MFY	3
4	Oltin vodi MFY	1
5	O‘zbekiston MFY	2
6	Quruvchi MFY	1
7	Yangi-Zarafshon MFY	2
8	Yoshlik MFY	1
9	Istiqlol MFY	2
10	Tinchlik MFY	1
11	Geolog MFY	1
12	Bahor MFY	1
13	Navro‘z MFY	1
14	Yulduz MFY	1
15	Daugiztau MFY	3
G‘ozg‘on shahar		
1	Marmarobod MFY	1
2	Tumar MFY	1
3	Shayxon MFY	1
4	Guliston MFY	1

Karmana tuman		
1	Azamat MFY	2
2	Ayronchi MFY	2
3	Alisher Navoiy MFY	1
4	Allon MFY	2
5	Arabxona MFY	2
6	Arg'un MFY	2
7	Beshkent MFY	1
8	Bog'ishamol MFY	2
9	Buyuk ipak yo'li MFY	2
10	Varq MFY	2
11	Gulobod MFY	1
12	Degaron MFY	3
13	Dehqon MFY	1
14	Do'rman MFY	2
15	Do'stlik MFY	2
16	Jaloyir MFY	2
17	Zarafshon MFY	1
18	Ziyokor MFY	1
19	Kalovot MFY	2
20	Katta machit MFY	2
21	Kumushkon MFY	2
22	Ko'hna qo'rg'on MFY	1
23	Qahramon MFY	2
24	Malik MFY	3
25	Mir Said Bahrom MFY	1
26	Navro'z MFY	2
27	Narpay MFY	2
28	Nurafshon MFY	2
29	Paxtaobod MFY	2
30	Pahlavon MFY	3
31	Sardoba MFY	2
32	Talqoq MFY	2

33	O‘zbekiston MFY	1
34	Uyrot MFY	2
35	Farhod MFY	1
36	Xonchorbog‘ MFY	2
37	Xo‘ja Xisrav MFY	1
38	Hazora MFY	3
39	Shibzon MFY	2
40	Yangi ariq MFY	2
41	Yangi varq MFY	2
42	Yangi hayot MFY	2
43	Yangiobod MFY	2
Konimex tuman		
1	Birlik MFY	1
2	Navro‘z MFY	1
3	Uchtepa OFY	3
4	Baymurat OFY	3
5	Sho‘rtepa MFY	2
6	Yuksalish MFY	2
7	Sarjal OFY	3
8	Zafarobod MFY	1
9	To‘qqiztepa MFY	2
10	Sho‘rko‘l MFY	3
11	Qaraq-ata OFY	3
12	Ko‘kcha MFY	1
13	Guliston MFY	2
14	Yangiqazg‘on OFY	3
15	Do‘stlik MFY	1
Qiziltepa tuman		
1	A.Navoiy MFY	1
2	Gulzor MFY	1
3	Xusharti MFY	2
4	Azizobod MFY	1
5	Ayronchi MFY	4

6	Arabxona MFY	3
7	Bashir MFY	2
8	Bobodo‘gi MFY	2
9	Bo‘lakrabot MFY	2
10	Bunyodkor MFY	1
11	Bo‘ston MFY	1
12	Buyuk ipak yo‘li MFY	2
13	Vang‘ozi MFY	1
14	Varozun MFY	3
15	Gamxur MFY	3
16	G‘oyibon MFY	2
17	Gulbog‘ MFY	4
18	Gumbaz MFY	2
19	Demas MFY	3
20	Zarmetan MFY	1
21	Ziyokor MFY	2
22	Iftixor MFY	3
23	Kalayi Azizon MFY	1
24	Konsurun MFY	3
25	Kulolan MFY	2
26	Madaniyat MFY	3
27	Malikobod MFY	3
28	Mustaqillik MFY	1
29	Navqiron MFY	1
30	Nurafshon MFY	2
31	Oboddiyor MFY	2
32	Oq machit MFY	3
33	Oq soch MFY	1
34	Okrabot MFY	2
35	Paxtaobod MFY	3
36	Rabot MFY	2
37	Saroy MFY	2
38	Sufiyon MFY	2

39	Tavois MFY	2
40	Tojikon MFY	2
41	Toshmachit MFY	1
42	O‘zbekiston MFY	1
43	Uzilishkent MFY	3
44	O‘rtakurgon MFY	2
45	Furkat MFY	1
46	Xafkoriyon MFY	1
47	Xomrabot MFY	2
48	Xo‘jakurgon MFY	2
49	Xumo MFY	3
50	Xusbiddin MFY	3
51	Sheyxon MFY	3
52	Yangi Hayot MFY	4
53	Yashnaobod MFY	1
Navbahor tuman		
1	Armijon MFY	2
2	Arabsaroy MFY	1
3	Arabxona MFY	1
4	Beshrabot MFY	1
5	Burqut MFY	1
6	Vomiton MFY	2
7	G‘ujbog‘tepa MFY	1
8	Guliston MFY	1
9	Dul dul MFY	2
10	Yosh kuch MFY	2
11	Karvon MFY	1
12	Kelachi MFY	1
13	Keskanterak MFY	1
14	Kuxron MFY	1
15	Qalqon ota MFY	2
16	Qiziloy MFY	1
17	Qizilrabot MFY	3

18	Qiziltepa MFY	3
19	Qorajon MFY	1
20	Qorovultepa MFY	1
21	Mexnat MFY	2
22	Navbahor MFY	1
23	Navkar MFY	1
24	Oq oltin MFY	1
25	Paxtakor MFY	1
26	Sarbozor MFY	1
27	Saroy MFY	1
28	Sovungar MFY	1
29	Toshrobot MFY	2
30	O‘zbekiston MFY	1
31	Uch tut MFY	2
32	Xalovattepa MFY	2
33	Xashman MFY	2
34	Chorvoqguzar MFY	1
35	Yuqori Beshrobot MFY	1
36	Yaltirabot MFY	3
37	Yangi kuch MFY	3
38	Yangi obod MFY	1
39	Yangi xayot MFY	1
40	Yangiyo‘l MFY	1
41	M.Ulug‘bek MFY	2
Nurota tuman		
1	Avazsoy MFY	3
2	Alisher Navoiy MFY	1
3	Amir Temur MFY	3
4	Bo‘diq MFY	2
5	Bo‘ston MFY	3
6	G‘afur G‘ulom MFY	2
7	Dehibaland MFY	3
8	Jarma MFY	3

9	Ibn Sino MFY	1
10	Istiqbol MFY	2
11	Istiqlol MFY	3
12	Kattasoy MFY	3
13	Qadoq MFY	3
14	Qizilcha MFY	3
15	Mirishkor MFY	2
16	Mustaqillik MFY	1
17	Nurobod MFY	1
18	Nurfaxr MFY	1
19	Oqmachit MFY	1
20	Orasoy MFY	3
21	Saydato MFY	1
22	Sentob MFY	3
23	Suvliq MFY	3
24	Temirqovuq MFY	3
25	Tinchlik MFY	3
26	Turko MFY	1
27	Chuya MFY	3
28	Shaxriston MFY	1
29	Eshon Sudur MFY	2
30	Yangiturmush MFY	3
31	Yangihayot MFY	3
Tomdi tuman		
1	Tomdibuloq OFY	1
2	Sharq OFY	1
3	Aqto'v OFY	1
4	Suketti OFY	2
5	Keriz OFY	2
6	Keregetov OFY	2
7	Shieli OFY	3
8	Ayaqquduq OFY	4
Uchquduq tuman		

1	Do'stlik MFY	1
2	Altintov OFY	3
3	Mingbuloq OFY	4
4	Uzunquduq OFY	4
5	Navoiy MFY	1
6	Abay MFY	1
7	Kokpatas MFY	1
8	Bozdun OFY	2
9	Ko'kayaz OFY	4
10	Mutaqillik MFY	1
11	Yo'lg'chilar OFY	1
12	Iftixor MFY	2
13	Aytim MFY	1
14	Shalxar OFY	1
Xatirchi tuman		
1	Mirdosh MFY	3
2	Caroy MFY	1
3	Avoqli MFY	3
4	Angidon MFY	3
5	Baxshijar MFY	3
6	Binokor MFY	1
7	Bog'ishamol MFY	1
8	Bog'chakalon MFY	3
9	Bo'g'irdoq MFY	2
10	Bunyodkor MFY	2
11	Galabek MFY	2
12	Guliston MFY	1
13	Damariq MFY	1
14	Dehqonobod MFY	2
15	Do'stlik MFY	1
16	Jaloyir MFY	2
17	Zarafshon MFY	3
18	Zarbdor MFY	2

19	Ikrom karvon MFY	3
20	Istiqlol MFY	3
21	Kattasoy MFY	1
22	Koriz Arab MFY	2
23	Ko'ksaroy MFY	3
24	Qoracha MFY	2
25	Qo'rg'ontepa MFY	1
26	Qo'rg'oncha MFY	2
27	Quchchi MFY	1
28	Qo'shchinor MFY	3
29	Langar MFY	3
30	Madaniyat MFY	3
31	Maydon MFY	3
32	Miyonqol MFY	1
33	Mustaqillik MFY	1
34	Navbaxor MFY	1
35	Navro'z MFY	3
36	Nayman MFY	2
37	Novja MFY	3
38	Oq oltin MFY	3
39	Oqtepa MFY	3
40	Olmazor MFY	2
41	Oltinobod MFY	3
42	Oltinsoy MFY	2
43	Paraxun MFY	1
44	Paxtakor MFY	3
45	Polvonota MFY	3
46	Samarqand MFY	1
47	Sangijuman MFY	3
48	Tamabaxrin MFY	3
49	Tasmachi MFY	3
50	Tinchlik MFY	3
51	Toshkulok MFY	3

52	Uyshun MFY	2
53	Uch tepa MFY	2
54	Uchqora MFY	3
55	Farovon MFY	1
56	Fidokor MFY	3
57	Xonaqa MFY	3
58	Xuddon MFY	1
59	Xo‘jakulobod MFY	3
60	Xo‘jaqo‘rg‘on MFY	1
61	Chag‘atoy MFY	3
62	Changir MFY	2
63	Chechak ota MFY	1
64	Chinobod MFY	1
65	Yangi qurilish MFY	3
66	Yangi MFY	2
67	Yangirabod MFY	1
68	A.Navoiy MFY	1
69	Amir Temur MFY	1
70	M.Ulug‘bek MFY	2